

QADIMGI INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING TARIXI VA UMUMIY XUSUSIYATLARI.

*University of Business and
Science 2 - kurs magistranti
Djurayeva Gulnoza Yuldashevna*

Annotatsiya

Mazkur ish Qadimgi ingliz tili (Old English, taxminan 450–1150-yillar) grammatikasining shakllanishi va rivojlanish tarixini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda anglosakson qabilalarining tili asosida vujudga kelgan qadimgi ingliz tilining morfologik, sintaktik va fonetik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, qadimgi ingliz tilida fe'l va otlarning turlanishi, kelishiklar tizimi, so'z tartibi, hamda artikllarning yo'qligi kabi grammatik belgilar tahlil etiladi.

Tadqiqot davomida qadimgi ingliz tili grammatikasiga lotin, skandinaviya va kelt tillari orqali bo'lgan tashqi ta'sirlar ham o'rganiladi. Shuningdek, tilning keyingi bosqichlarga (o'rta va yangi ingliz tili) o'tishidagi grammatik o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Mazkur ish tilshunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, ingliz tili tarixiga qiziquvchilar hamda til evolyutsiyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun foydali ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qadimgi ingliz tili, grammatika, morfologiya, sintaksis, fonetika, til tarixi, anglosaksonlar, lotin tili, skandinaviya tillari.

Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Statistikasiga qaraganda, dunyo bo'ylab 6 – 7 ming atrofida tillar mavjud. Keng ma'noda til atamasi ostida biror muloqot tizimining tayinli qoidalari majmuasi tushuniladi. Tillar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, ularning evolutsiyasini qadimgi tillar va ularning keyingi rivojlanish bosqichlari belgilarga ega bo'lganini aniqlovchi va ularni zamonaviy tillarga taqqoslovchi tarixiy tilshunoslik o'rganadi. Bugungi kunda jahonda eng keng tarqalgan tillardan biri jumladan, ingliz tilidir.

Dastlabki tilning paydo bo'lishi masalasi insoniyatni qadimgi zamonlardan beri qiziqtirib keladi. Qadimgi davrlardan boshlab tilning kelib chiqishi haqida ko'plab nazariyalar, ta'limotlar paydo bo'ldi. Lekin bu nazariya va ta'limotlar tilning kelib chiqish masalasini hanuzgacha uzil kesil hal qilib bera olgani yo'q.

Qadimgi ingliz tili davri, tadqiqotlarga ko'ra V asrdan XI asrning ikkinchi yarimigacha bo'lgan davr. Odatda, tillarning paydo bo'lishi boshqa tillarning bo'linishi yoki qo'shilishi orqali sodir bo'ladi. Ingliz tili tarixda birinchi Anglo – Sakson ko'chmanchilari o'ziga xos dialektda gaplashganidan paydo bo'lgan. Ingliz tilining


boshlanishi 449 yilga borib taqaladi, o'zlarining kelt ittifoqchilariga yordam berish uchun ikki german qabila boshliqlari Hengist va Horsa tinmay urushayotgan qabiladoshlarini Britaniya oroliga olib kelishgan. Natijada V asrda Britaniyada yashagan german qabilalaridan birining dialekti bir yarim ming yildan ko'proq davr mobaynida dunyo bo'yicha 3 o'rinda gaplashiladigan asosiy tilga aylandi. Ushbu dialektlani zamonaviy ingliz tiliga aylantirgan o'zgarishlar haqida tarixiy ma'lumot uzoq voqealarga boy, lekin ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun juda muhim. Hozirgi kunda dunyo bo'ylab 2 milliarddan ortiq odam ingliz tilda muloqot qiladi. Garchi u faqat xitoy, arab tillaridan keyingi uchinchi o'rinni egallashiga qaramasdan, eng ustun til bo'lib qolmoqda va u ikkinchi ona tili sifatida gapiradiganlar soni bo'yicha ham yetakchilik qilmoqda.

Ingliz tili Hind-Yevropa tillar oilasiga mansub bo'lib, Hind – yevropa tillari flektiv tillardir. So'zlarning morfologik shakllarining fleksiya orqali yasalishinbu tillarning asosiy morfologik xususiyatidir. Bu tillarda har bir mustaqil so'zning dastlabki shakli ham negiz va qo'shimchalarga bo'linadi, natijada o'zak – negiz mustaqil hisoblanadi. Bu oila Yevrosiyoda mavjud bo'lgan, keyinchalik Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Afrikaning ayrim hududlarida tarqalgan yirik til oilalaridan biridir. Shu jumladan, ingliz tili Hind – Yevropa oilasining G'arbiy german tillar guruhining ingliz – friz kichik guruhiga mansub tildir. Ingliz tili Britaniya orollariga inglizlarning ajdodlari ko'chishi tufayli o'zaro bog'liq dialektlaridan paydo bo'lgan. Bu orolda mavjud bo'lgan yetti podshohlikka ko'ra, tilning bir qancha dialekt shaklida mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Grammatika atamasi yunoncha “grammatike yoki gramma” so'zidan olingan bo'lib “harf, yozish” degan ma'nolarni anglatadi. Grammatika tilshunoslikning tilning grammatik tuzilishini, ya'ni so'zlarning shaklga ega bo'lish qonuniyatlarini, shuningdek, so'z birikmalari va gaplarni tuzish qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limidir. Grammatika dastlab qadimda Hindistonda, tilshunos olim Paninining “Grammatikaga oid” asarida, miloddan avvalgi 5 – 4 asrlarda, keyinroq Yunonistonda, Aristotel tomonidan miloddan avvalgi 2 – asrda qiziqarli soha sifatida o'rganilgan. Yunon Grammatik an'analari lotin tilini o'rganish jarayonida rivojlanib borgan. Hozirgi kunda grammatika ikki qismdan – morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so'zning grammatik turkumlari, morfologik kategoriyalar va so'z shakllari, sintaksisda esa so'z shakllarining gap tarkibida o'zaro birikish yo'llari, gap va uning kategoriyalari va gapning tuzilish turlari bayon qilinadi.

Tarixchilar fikricha, ingliz tili grammatikasi birinchi marta 16 – asrda Uilyam Bullokar tomonidan kiritilgan. Ingliz tili o'zining ajoyib va betakror grammatikasiga shu jumladan, morfologiya va sintaksisiga ega tildir. Uning grammatikasi o'ziga xos tarixiga ega tillardan biri hisoblanadi. Ingliz tili grammatikasi tarixi – bu asrlarni o'z ichiga olgan va ingliz tilining evolyutsiyasini aks ettiruvchi ajoyib fandır. Ingliz

grammatikasining tarixini o'rganish uchun bir qancha fanlarni o'rganib chiqish talab qilinadi. Masalan: tilshunoslik terminologiyasi va umumiy tilshunoslik o'rganilishi lozim. Til tarixi ingliz tadqiqotchilari orasida umumiy e'tirof etilgan, ammo uning rivojlanish davriga alohida e'tibor beriladi. Shunday qilib, qadimgi ingliz tili tarixiy fonologiya, tarixiy morfologiya, tarixiy sintaksis va tarixiy leksikologiyani o'z ichiga oladi. Bu jaroyan bir nechta muhim bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:



Ingliz tili grammatikasining dastlabki rivojlanishi davrda lotin tilining ta'siri kuchli bo'lganligini yuqoridagi tasvirda tushunarli qilib tasvirlangan. Albatta, lotin tilining ingliz tilga ta'siri tarixiy bog'lanishlardan xoli emas. Shuningdek, lotin grammatika an'analari ingliz tilining dastlabki grammatikasini yozishga ta'siri ko'rsatdi. Lotin tili eski ingliz tiliga xristianlik va rim istilolari orqali va ilk zamonaviy ingliz tiliga esa, ayniqsa Uyg'onish davrida, lotin tili qayta mashhur bo'lganda yanada ta'siri kuchli bo'ldi. Lotin tilining ingliz tiliga bilvosita ta'siri bo'lgach ingliz tili lotin tiliga asoslangan roman tillaridan lug'at oldi. Ilk grammatika haqida kitob XVI da Uilyam Bullokarning "Grammatika uchun risola" nomli birinchi ingliz tili grammatikasi haqida kitob 1586 yilda chop etilgan. Bullokar grammatikasi Uilyam Lilining lotin tili grammatikasi to'g'risidagi "Rudimenta" kitobidan namuna qilib olingan edi. Shuningdek o'sha paytlarda Lili grammatikasi Angliya maktablarida qo'llanma sifatida foydalanilgan. Lekin, Bullokar o'z asarini ingliz tili grammatikasini ingliz tilida yozib, ilk ixtirosini isloh qilgan. Qizig'i shundaki, u lotin grammatikasiga katta ta'sir ko'rsatib, ingliz tili tuzilishi va termenologiyasini aks ettirgan edi. Ushbu yondashuv ingliz tilini lotin tili bilan taqqoslanadigan hurmatli til sifatida yaratishga qaratilgan edi. Bullokarning say – harakatlari qaramasdan, ko'plab ingliz tili grammatikasi lotin tilida yozilgan, chunki mualliflar o'z kitoblarini ilmiy darajada yuksak bo'lishini maqasad qilgan edilar. Kristofer Kuperning "Grammatica Lingua Anglicana" 1685 yilda chop etilgan asari lotin tilida yozilgan oxirgi ingliz

grammatikasi bo'lib qoldi. Shundan so'ng ham bir muallifning ingliz tili grammatikasi uchun mustaqil qandaydir qoidani o'rnatishga bo'lan har qanday urinishini tezda boshqalar tomonidan lotin tiliga asoslangan tegishli ekvivalentning haqiqatini e'lon qilish bilan yakunlanar edi.

XVIII asrning mashhur adiblaridan biri Jonatan Svift o'zining “Ingliz tili tuzatish, takomillashtirish va tushuntirish bo'yicha taklif” kitobida shunday misralarni keltirib ketgan - “Men har qanday tilni to'liq mukkamal bo'lmaganini ma'qullayman, negaki til doimo o'zgarib turishi kerak, degan fikrdaman”. Bu asrga kelib olimlar keyingi qadamni tasviriy grammatikaning yuksalishi tomon quyganlar. XVIII asrda esa ingliz tilining haqiqiy qo'llanilishini tahlil qilish va tavsiflashga e'tibor qaratib, tavsiflovchi grammatika tomon siljish yuz berdi. Shuningdek, bu asrda ingliz tilida retseptiv grammatikalar paydo bo'ldi. Retseptiv Grammatik qoidalar – belgilangan grammatika tilning amalda qo'llanish usullarini tavsiflashdan ko'ra, aslida tildan qanday foydalanish kerakligini yoki foydalanmaslik kerakligini tartibga soluvchi me'yorlar yoki qoidalar to'plamini anglatadi. Robert Lout va Lindli Myurrey kabi taniqli shaxslar ushbu yondashuvga katta hissa qo'shdilar. Ularning ishlari ingliz tilini standartlashtirish va to'g'ri foydalanish uchun aniq qoidalarni taqdim etishga qaratilgan edi. Shunday qilib, bu olimlar insonlarda tilga chuqurroq qiziqish uyg'onishiga sabab bo'ldi. Boshqa bir olimlar tomonidan esa lingvistik hodisalar va munosabatlarning tabiati, zamon kategoriyasini belgilash, tur va vaqt mos yozuvlari haqida turli fikrlarni bildirar edilar. XVII asr ikkinchi yarimida va XVIII asrda ingliz grammatikachilari ushbu mavzu bo'yicha boshlang'ich nazariyalar va fikrlarning kelib chiqishi haqida qiziqarli izlanishlar olib borishgan. Shuningdek “Ilk ingliz grammatikasi” asarida bu shaklning uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan tilning tavsifi – keyinchalik zamonaviy ingliz grammatikasida tasviriy grammatikalar yoritilmagan. Qolaversa, ma'lum bir davrning grammatik nazaryasi bu ma'lum bir davr tilining rivojlanish darajasini aks ettiradi. XVII – XVIII asrlarda ingliz yozuvchilari grammatik asarlarda shaxsiy fe'lning aspectual shaklni ishlatishgan. O'rganilayotgan davr ingliz tilining grammatik o'zgarishlar paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, o'sha davrda asarlar avval lotin tilida yozilgan, keyin esa ingliz tiliga tarjima qilingan. XVII asr ingliz normalarini kodifikatsiya qilish uchun kurash bilan tarixda ajralib turadi, bu “adabiyoti standarti qoidalarining ancha tartibsiz holati” asarida yoqqol ko'rinib turadi. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida ingliz tilining grammatik tuzilishi muammolari filolog olimlarning e'tiborini tortdi. grammatik tadqiqotlarga til tuzilishi haqidagi umumiy falsafiy konsepsiya ta'sir o'tgazdi, bu esa tadqiqotchilarni grammatik kategoriyalarni aniqlashda foydalanilgan tushunchalardan kelib chiqishga to'g'ri keldi. J.Xarrisning “Germes yoki universal grammatika bo'yicha falsafiy tadqiqot” 1771 yilda Londonda chop etilgan asari bunga yorqin misoldir. Bunda muallif fe'l zamonlarining diagrammasini berib, ularni strukturaviy asosga ko'ra emas, balki konseptual asosga

ko'ra birlashtiradi. Bu asarda muayyan harakatlarni ifodalash uchun uchta zamon guruhlari aniqlanadi. O'sha davrda grammatika mualliflarining ba'zilar qoidalar to'plamini rasmiylashtirishga intilishgan bo'lsa, boshqalari esa faktlarni tavsiflash bilan cheklanib qolmasdan, bu to'plamlarni qonuniylashtirishga harakat qilishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
2. Ellis, R. (2008). *The Study of Second Language Acquisition*. Oxford University Press.
3. Kuhl, P. K. (2004). Early language acquisition: cracking the speech code. *Nature Reviews Neuroscience*, 5(11), 831–843.
4. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). *How Languages Are Learned* (4th ed.). Oxford University Press.
5. Nassaji, H., & Fotos, S. (2011). *Teaching Grammar in Second Language Classrooms: Integrating Form-Focused Instruction in Communicative Context*. Routledge.
6. Piaget, J. (1954). *The Construction of Reality in the Child*. Basic Books.
7. Swain, M. (1985). Communicative competence: Some roles of comprehensible input and comprehensible output in its development. In S. Gass & C. Madden (Eds.), *Input in Second Language Acquisition* (pp. 235–256). Newbury House.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
9. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2006). *Games for Language Learning* (3rd ed.). Cambridge University Press.
10. Ellis, R. (2003). *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
11. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
12. Tursunova, G. (2024). *Yosh o'quvchilarda ingliz tili grammatikasini*
13. o'zlashtirishda interaktiv usullar. "Ilm-fan va ta'lim" jurnal, Toshkent:
14. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti.